
QO'ZIQORINDAN OYIGA BESH MILLION SO'M DAROMAD



Dehqonchilikning "tili"ni bilgan kishi har qanday sharoitda mo'l hosil va yaxshigina daromad olishni eplaydi. Buni yaxshi anglagan Qo'shtepa tumanidagi Shodlik mahallasida yashovchi Madinaxon Saidova bugungi kunda iste'mol uchun yaroqli bo'lgan qo'ziqorin yetishtirib, mo'maygina daromad topmoqda.

Madinaxon 2023 yili mahalladagi hokim yordamchisi Ma'rifatxon Saidovaning tavsiyasi bilan o'z xonadonida bir sotix yerda ish boshladi. Hozirda oiladagilarning barchasi qo'ziqorin yetishtirish bilan mashg'ul bo'lib, qo'shimcha daromad topishmoqda.



- Biz hozir uy sharoitida qo'ziqorin yetishtiryapmiz, - deydi Madinaxon Saidova. - Bu nav juda foydali va oqsilga boy. Xaridorlari ham ko'p. Bu nav 28 kunda hosilga kirib, bir oyda to'liq pishib yetiladi. Oyma-oy xonadonimizga besh million so'm qo'shimcha daromad kirib kelmoqda. Afzallik tomoni, uni yil davomida yetishtirib, daromad olsa bo'ladi, mavsum tanlamaydi. Shuning uchun "Uy sharoitida nima ish boshlasam ekan" deb o'ylanib turganlarga qo'ziqorinchilik bilan shug'ullanishlarini taklif qilaman.

Ma'lumot uchun: "kalla" navli qo'ziqorinning bir kilogrami ichki bozorda 35-40 ming so'mdan sotilmoqda.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-04-05 11:39:31